

---

## O'zLiDeP 20 yoshda O'zLiDeP Buvayda tumani Kengashi tomonidan O'zLiDeP ning 20 yilligi munosabati bilan tadbir tashkil etildi.

Tadbirda O'zLiDeP tuman Kengashi raisi X.Isaqulov tomonidan o'tgan 20 yil davomida partiyamiz mamlakatimizda katta siyosiy kuchga aylanib ulgurganligi, xalq ishonchini qozonib, o'ziga xos obro'ga erishishida deputatlarimizning alohida o'rni borligi va ularning soni saylovdan saylovga faqat oshib borayotganligi xususida to'xtalib o'tildi.

Shuningdek, tadbirda Xalq deputatlari Buvayda tumani kengashi kotibiyat mudiri B.Mamadaliyev partiya faoliari partiyamiz kelgusida ham o'zimizga yuklatilgan yuksak mas'uliyatni yanada teran his qilib, xalq ishonchini qozongan holda bu boradagi ezgu ishlarimizni davom ettirishi ta'kidlandi.

Partiya faollariga tashshakurnoma va estalik sovg'alari topshirildi.

2023-11-17 12:11:49